

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
ERON – AFG‘ON KAFEDRASI**

REFERAT

Mavzu: Dariy tilida fe‘l - kesimning ifodalanishi

Referatda dariy tilidagi fe‘l – kesimning qanday ifodalanishi, uning faqat shu tilga xos xususiyatlari yoritilgan. Kesimning tipologiyasi, uning ifodalanish usullari haqida ma‘lumot keltirilgan. Fe‘l – kesim bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan chalkashliklar, adashishlar haqida ham fikr keltirilgan. Ushbu referatda dariy tilida mavjud go‘zal iboralar orqali fe‘l – kesim ifodalanishi mumkinligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bajardi: O‘ktamova H.A.

Toshkent-2014

Dariy tilida fe'l-kesimning ifodalanishi

Reja:

Kirish.

I. Bob. Dariy tilida kesim va uning ifodalanishi.

1.1. Kesim va uning ifodalanishi.

1.2. Kesim tipologiyasi.

II. Bob. Dariy tilida fe'l-kesim.

2.1. Sodda fe'l – kesim.

2.2. Murakkab fe'l – kesim.

Xulosa.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

Kirish

Dariy tili Afgʻonistondagi rasmiy tillardan (pushtu – dariy) biri boʻlib, oʻzining bir necha asrlik tarixiy taraqqiyotiga ega. Ushbu tilde soʻzlashuvchi aholi asosan Afgʻonistonning shimoliy va markaziy viloyatlarida hamda Kobulda istiqomat qiladi. Dariy tili janubi- gʻarbiy eroniy tillar guruhining hind – yevropa oilasiga mansubdir. Yozuvi arab alifbosi asosida yaratilgan boʻlib, amalda fors alifbosi bilan bir xil.

Hozirgi dariy tili nazariy grammatikasi haqida mamlakatning oʻzida va xorijda bir qancha ilmiy maqolalar va darsliklar yaratilgan.

Dariyshunos olimlardan Neghad Saidiy, Muhammad Rahim Ilhom, Ravon Farhodiy, Betob, Abdumalik Shuaro, A. Hamidiy, L.N. Kiseleva, T. N. Paxalina, B. Y. Ostrovskiy, V. M. Mikolaychiklarning darsliklari bunga misoldir.

Biz ham boʻlajak dariyshunos sifatida kichik ilmiy ishimizni dariy tilida kesimning ifodalanishi va uning bir turi hisoblangan feʼl – kesimni tadqiq etishdan boshladik.

Gapni yuzaga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda kattadir. U hukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini koʻrsatuvchi eng muhim boʻlakdir. Gapda ega ham, ikkinchi darajali boʻlaklar (toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol) ham bevosita yoki bilvosita kesimga bogʻlanadi. Kesim bosh boʻlaklarning biri hisoblanib, u ega haqidagi hukmni bildiradi. Kesim dariy tilida میشد چی? nima boʻldi? چی شد nima qilyapti? چی میکند deb ataladi va nima boʻlyapti? چی قسم است qanday? کیست nima? kim? kabi savollarga javob boʻladi. Kesim predikativlikni koʻrsa-tadigan asosiy elementdir. U ega bilan ifodalangan predmetning (predmet keng maʼnoda: shaxs, predmet, voqea, hodisa) harakatini, holatini koʻrsatadi (feʼl- kesimlar); biror sifatini, xususiyatini, jinsini, miqdorini, unga tengdosh belgini koʻrsatadi (ot-kesimlar).

Mavzuning dolzarbligi: Dariy tili boʻyicha qilingan ilmiy ishlar salmogʻi juda oz. Dariy tilida mavjud oʻziga xosliklar, ushbu tilning nozik qirralari hali yetarlicha oʻrganib chiqilmagan. Biz ochishga harakat qilgan ushbu mavzumiz

dariy tilida o'rganilmagan, yoritilmagan mavzu bo'lib, biz bu ilmiy tadqiqotimiz orqali dariy tilidagi fe'l – kesimning qanday ifodalanishini, uning faqat shu tilga xos xususiyatlarini, nozik jihatlarini yoritishga, uni amalda ko'rsatib, isbotlab berishga urindik. Kesimning tipologiyasini, uning ifodalanish usullari haqida ma'lumotlar keltirdik. Kesim turlaridan faqatgina fe'l – kesimni o'rganishga qaror qildik. Fe'l – kesim bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan chalkashliklar, adashishlar haqida ham fikr yuritdik. Ushbu ilmiy ishimiz orqali dariy tilida mavjud go'zal iboralar orqali fe'l – kesim ifodalanishi mumkinligini alohida ko'rsatib o'tdik.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Ushbu mavzu dariy tilida o'rganilmagan. Alohida tadqiqot ob'ekti sifatida yoritilmagan. Fe'l – kesimning ifodalanishi, uning tuzilishi ochib berilmagan.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: Tadqiqotimiz ob'ekti kesim turlaridan biri bo'lgan fe'l – kesimdir. Fe'l – kesimning tuzulishi, turlari, tarkibi haqida so'z yuritamiz.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Ushbu mavzuni o'rganishdan maqsad dariy tilida gapning bosh bo'laklaridan biri bo'lgan kesim haqida ma'lumotlar yig'ish, kesimlar turilarini aniqlash, gapda fe'l - kesim ishlatilishini o'rganish, fe'l – kesim turlarini aniqlash, fe'l – kesim tarkibini o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqotning yangiligi: Tadqiqotning yangiligi shundaki, biz gapning bosh bo'laklaridan biri hisoblangan kesimning besh turi mavjudligini, fe'l – kesim tarkibida dariy tilidagi modal fe'llar ishlatilish holatlarini, ba'zi murakkab fe'l – kesimlarning sodda fe'l – kesimlar bilan omonimlik holatlarini bajarishini, ba'zi mustaqil fe'llar kesim tarkibida yordamchi fe'l vazifasini bajarib ham sodda fe'l kesim, ham murakkab fe'l – kesim bo'lib kelishini aniqladik.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Ushbu tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, hali dariy tilida o'rganilmagan bu mavzu keyinchalik yaratiladigan dariy tili sintaksisi uchun yaxshi nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ishimizda iloji boricha fe'l – kesim haqidagi umumiy ma'lumotlardan foydalanib, uning xususiy tomonlarini kengroq yoritishga harakat qildik. Bu

tadqiqotning amaliy ahamiyati – o‘rgangan nazariy bilimlarimizni amalda ishlatilish holatlari topildi va bu bizdan keyingi avlod uchun ilmiy asos bo‘ladi. Fe‘l – kesimning o‘ziga xos yangicha ma’nolari badiiy asarlar o‘qilishi jarayonida ma’lum bo‘ldi. Boshqa tillar bilan solishtirib, qiyoslanib o‘rganilishida ham katta xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi: Tadqiqotni o‘rganish mobaynida ma’lumot to‘plash, qiyoslash, tahlil, tizimli yondashuv, umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumiylikka kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi: Mazkur ilmiy ish mundarija, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan.

1.1. Kesim va uning ifodalanishi

Kesim ega bilan ifodalangan shaxs, predmet va hodisaning belgisini bildiradigan bo‘lakdir. Bunda belgi odatda tasdiq yo inkor yo‘li bilan anglatiladi (bunda belgi so‘zi keng ma’noda bo‘lib, aktiv belgi- harakat, holat, xususiyat, sifat kabi mazmunlarni o‘z ichiga oladi). Kesim bosh bo‘laklarning biri hisoblanib, u ega haqidagi hukmni bildiradi. Kesim dariy tilida خبر deb ataladi va nima چى مېكنده چىست چى قسم است? nima bo‘lyapti? چى مېشده? nima bo‘ldi? چى شد? qilyapti? kim? kabi savollarga javob bo‘ladi. Kesim predikativlikni ko‘rsatadigan asosiy elementdir. U ega bilan ifodalangan predmetning (predmet keng ma’noda: shaxs, predmet, voqea, hodisa) harakatini, holatini ko‘rsatadi (fe‘l-kesimlar); biror sifatini, xususiyatini, jinsini, miqdorini, unga tengdosh belgini ko‘rsatadi (ot-kesimlar).

Kesim gapning uyushtiruvchi markazlaridan biridir; u hukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lak bo'lganligidan, gapning mazmunini, xarakterini belgilashda katta rol o'ynaydi, ega temani (gapning nima to'g'risida borishinigina) bildiradi, shu haqda nima deyilishini, xabarini kesim bildiradi. Kesimning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishi gapning qanday xususiyatga ega ekanligini ko'rsatib turadi.

Kesimning qanday formada bo‘lishi egaga bog‘liq. Gap egasiz bo‘lganda - egasi topilmaydigan gaplarda kesim odatda uchinchi shaxs formasida keladi: shaxsi noma’lum va shaxsi umumlashgan gaplarda ikkinchi yo uchinchi shaxs formasida bo‘ladi.

Hukmning tasdiq yoki inkor bildirishiga ko‘ra kesim bo‘lishli yoki bo‘lishsiz formada keladi.

1.2. Kesimning ifodalanish usullari.

Har bir tilda predikativlik munosabatlari grammatik birikish yoʻli va intonatsiya orqali ifodalanadi. Dariy tilida predikativlik munosabati 3 usul-morfologik-sintaktik, intonatsiya- sintaktik va intonatsiya orqali ifodalanadi.

Birinchi usulbutunlay shaxs-son, zamon, tarz, modallikning asosiy sintaktik kategoriyalariga tayanadi. Ushbu ma'nolar yo so'z bilan (agar kesim sintetik yoki analitik fe'l formasida kelsa), yo so'z birikmasi bilan (agar kesim fe'lning frazeologik birikma, fe'liy, fe'l-ot so'z birikmasi yoki sintaktik predikativ guruh bo'lib kelsa) ifodalanadi. Shaxs-son, zamon, modallikni o'zida ifodalagan so'z yoki so'z birikmasining gapda kesim vazifasini bajarishi dariy tilida morfologik- sintaktik usul deyiladi.

Qizimni maktabdan uyga olib keldim.[11] - دختر منرا زامکتب به خانه آوردم

Predikativlikni ifodalovchi ikkinchi usul – intonatsiya-sintaktik usul bo'lib, bu usul kam miqdordagi kesim vazifasida keluvchi undov va ravish xarakteridagi so'zlarga intonatsiya-ekspressivlik kiritishga asoslangan. Bu usulda real hodisaga bo'lgan fikrni ifodalash shaxs-son, zamon, mayl kabi fe'l kategoriyalari bn bog'liq emas, fe'l bo'lmagan so'zlar (undov, ravish), kesim vazifasida mustaqil keluvchi va fe'l bilan almashuvchi so'zlarga tayanadi.

Kelishing yaxshida.[12] - خوشا آمدن تو

Intonatsiya deb ataluvchi predikativlikni ifodalovchi uchinchi usul real hodisaga bo'lgan munosabatni bildiruvchi alohida so'zlar va so'z birikmalari intonatsiya, ba'zan emotsional bezaklar vositasida yasaladi. Bu usul asosan turli bir tarkibli gaplarda qo'llaniladi.

Afsus! - افسوس!

Ofarin! - احسنت!

Ey mening Vatanim! - ای وطن من!

1.3. Kesim tipologiyasi.

Dariy tilining grammatik manbalarida kesimning an'anaviy tipologiyasi uning ikki turini o'z ichiga oladi:

- 1) خبر فعلی - Fe'l-kesim
- 2) خبر اسمی - Ismiy -kesim

Ammo kesim turlarini o'rganish natijasida kesim tipologiyasi besh turni o'z ichiga olishi ma'lum bo'ldi:

- 1) خبر فعلی - Fe'l-kesim

- 2) خبر اسمی - Ismiy –kesim
- 3) Fe'liy-ismiy kesim
- 4) Ravish – undov kesim
- 5) Predikativ turdagi sintaktik guruh bilan ifodalangan kesim

Fe'l- kesim dariy tilida katta semantik hajmga va har xil stukturaga ega. Fe'l (infinitiv formadan tashqari) predikativlik munosabatini ifodalaydi , balki shuning uchun boshqa so'zlar yordamisiz mustaqil kesim bo'lib kela olar.

Bu haqda quyida yana kengroq fikr yuritamiz.

Qo'limni uning yelkasiga qo'ydim. -دستم را بالای شانه اش گذاشتم.

Partugaliya shohini bilmaysanmi? - شاه پرتگال را نمیشناسی؟

Bir lahza yolg'iz va bemaqsad dahlizda turdim. - لحظه یی در دهلیز تنها و بیهدف ایستادم .

Ismiy- kesim fe'l-kesimdan tarkibi va shakliga ko'ra, eganing ismiy xususiyatlarini ifodalashiga ko'ra farq qiladi. Ismiy – kesim atamasi predikativlik va bog'lamadan tarkib topgan so'zlar guruhini nomlaydi. Bunday guruhda predikativ asosiy ma'noni ifodalaydi, bog'lama esa eganing predikativ bilan moslashishi va bog'lanishiga yordam beradi.

Nega xomushsan?[9] - چرا خاموش استی؟

Bu ayol bizning o'qituvchimiz.[11] - این زن معلم ماست.

Bu faslning nomi bahor.[12] - اسم این فصل بهار است .

Fe'liy- ismiy kesim deb, ma'lum bir ismiy va fe'liy qismlaridan iborat kesim turiga aytiladi. Fe'liy qism bunday birikmalarda sodda yoki murakkab fe'llar bilan ifodalanishi mumkin. Dariy tilida fe'liy- ismiy kesimlarning quyidagi ikki turi mavjud:

1. Fe'liy – ismiy kesimlarning birinchi turi gapning egasi haqida kengaytirilgan ma'lumot beradi, ya'ni ega predikatsiyada ishtirok etayotgan ham fe'liy va ham ismiy qismlar yordamida tasvirlanadi.

Hamma dasturxondan och holda turishdi.[11] - همه از سر سرفه گرسنه پا میشود .

Bir lahza dahlizda yolg'iz va bemaqsad
Lahza-yi dar dahliz tatha va bihaddf istadim
turdim.[9]

2. Fe'liy – ismiy kesimlarning ikkinchi turi gap tarkibida boshqa bo'laklar bilan ham bog'langan bo'ladi. Bunday kesimlar nafaqat ega bilan balki o'zining ismiy qismi orqali to'ldiruvchi bilan ham bog'lanadi. Ikkinchi turdagi kesimlarning ismiy qismi o'rnida har qanday ot, sifat va sifatdashlar ishlatilishi mumkin bo'lsa, fe'liy qismaniy sifatida ko'pincha o'timli fe'llar ishtirok etadi.

Bular quyidagilar:

تلقى کردن , نامیدن , احساس کردن , دیدن , به شمار آوردن

خواندن , معرفی کردن , شناختن

Biz uni o'z do'stimiz deb hisoblardik. – ما او را دوست خود میشناختیم.

Ravish –undov kesimlar. Dariy tilida fe'llardan boshqa so'z turkumlariga xos bo'lgan, lekin fe'l o'rniga kesim vazifasini bajara oladigan so'zlar ham mavjud. Bunday so'zlar ko'p emas, ular qatoriga کو qayerda? predikativ ravishi, چی nima? so'roq olmoshi, bir nechta undov so'zlar va الف ندا orttirilgan ot va sifatlar kiradi.

Qani radio antennasi uchun joy? - کو جای آنتن رادیو؟

Go'zaldir Sherozning manzarasi va obro'si baland, saqlasin uni zavol-u zarardan Xudovand. – خوشا شیراز وضع بی مثالس خداوند نگهدار از زوالش.

undov so'zi bilan ifodalangan kesim bu jumlada uyushgan ikki egaga شیراز وضع va tegishli va ularning belgi va xususiyatlarini ifodalaydi va ishlatilishi lozim bo'lgan است ismiy-kesimning o'rnini bosadi.

Bunday undov ravish bilan ifodalangan kesimlar qatoriga زهی va دریغ kabi so'zlarni ham kiritish mumkin.

Ularning hammasi faqatgina ega bilan munosabatda bo'lgan holatlarda kesim vazifasini bajara oladi. Agar ega bo'lmasa ular bir tarkibli sodda gaplarni tashkil qiladi:

Vodarig'! – دریغا!

Predikativ tipidagi sintaktik guruh bilan ifodalangan kesim. Bunday sintaktik guruhlarga misol tariqasida butun tarkibi bilan kesim vazifasini bajaradigan va ega bilan egalik qo‘shimchalari orqali bog‘langan predikativ guruhlarni ko‘rsatish mumkin. Masalan:

اسپ قیمتش گران است - Otning narxi qimmat.

Bu jumlada biz asosiy predikativlikni juda yorqin ifodalovchi ikkita tarkibini ko‘rishimiz mumkin. Bu predikativlik “belgi egasi –belgi” ko‘rinishiga ega. Belgi egasi bo‘lgan اسپ so‘ziga belgini ifodalovchi گران است murakkab birikmasi kesim holida keltirilgan.

II. Bob. Fe'l- kesim.

2.1. Sodda fe'l- kesim.

Fe'l- kesim – bu odatda o'zicha kesim bo'lib kela oladigan - mustaqil butunlik tusini olgan, o'zining mavjud bo'lishi uchun boshqa fe'lni talab qilmaydigan fe'llardir. Fe'l kesim uchun juda moslangan so'z turkumidir. Fe'l boshqa so'z turkumlariga nisbatan sintaktik xususiyati kuchli bo'lgan kategoriyadir. Sof fe'lning vazifasi kesim bo'lib kelishdir, chunki bu fe'l predikativlikni ifodalab turadi. Mustaqil fe'l- kesim aniqlik, buyruq va istak mayllari formalaridagi fe'llar bo'ladi. Bular ega bilan bevosita birikadi, bog'lama talab qilmaydi.

Dariy tilida fe'l – kesim ikkiga bo'linadi:

1) sodda fe'l- kesim: fe'l yoki frazeologik fe'liy so'z birikmasi shakli bilan ifodalanadi

2) murakkab fe'l- kesim: sintaktik guruh bilan ifodalanadi.

Sodda fe'l- kesim sof fe'llar bilan ifodalangan kesimlardir. Ularning ikki turi – sintetik va analitik turlari mavjud.

Fe'lning sintetik shakli mustaqil ravishda shaxs-son, zamon, mayl va tarz ma'nolarini ifodalaydi.

Dariy tilida fe'lning aniq mayli juda ko'p ishlatiladigan quyidagi sintetik shakllarni o'z ichiga oladi:

1) hozirgi – kelasi zamon fe'li(مضارع اخباری)

2) aniq o'tgan zamon fe'li(ماضی متلق)

3) o'tgan zamon davom fe'li(ماضی استمراری)

Sharoraning tobuti yoniga o'tirdim.[9]

Ovozim titrardi. [9]

Men uchun kuylayapsanmi?[9]

Ba'zan hozirgi – kelasi zamon fe'li ma'nosida old qo'shimchasi qo'shilmagan shakllar ham ishlatiladi.

Men kuylayapman.[9]

Kesim buyruq va shart- istak mayli shakllarida ham kelishi mumkin:

Sen ham kuyla! [9] – تو هم بخوان!

Mavjudlikni ifodalovchi – bor yoki نیست – yo‘q va bog‘lamaning 3-shaxs birlik shakli ba‘zan sodda fe‘l sifatida ham ishlatiladi.

Ona oshxonada(turibdi). [9] – مادر در استآشپزخانه .

U maktabda edi. [11] – او در مکتب بود .

Ushbu gaplar tarkibidagi va نیست , هست shakllari(o‘tgan zamon shakli بود) mustaqil ma‘noli fe‘llarga aylangan. Urg‘u oluvchi va urg‘u tushmaydigan shakllari bir-birining o‘rniga ishlatilishi mumkin. Lekin bunday almashuv jumlaning ma‘nosini biroz o‘zgartiradi.

Ruchka stolning ustida turibdi. – قلم روی میز است.

Ushbu gapda predmet (ruchka)ning makonda joylashgan holati ta’kidlanayapti.

Ruchka stolning ustida bor. – قلم روی میز هست.

Bu jumlada endi predmetning joylashgan o‘rni emas balki mavjudligi ta’kidlanmoqda.

Hozirgi zamon dariy tilida yordamchi fe‘l sifatida ishlatiluvchi fe‘li شدن lug‘aviy mustaqil ma‘no kasb etishi ham mumkin.

Hech narsa bo‘lmadi. [11] – هیچ چی نشد. Nima bo‘ldi? – چی شد؟

fe‘li oddiy kesim vazifasida kelgan holatini alohida ko‘rib chiqamiz.

fe‘lining eng ommalashgan holati – bu qandaydur predmetning mavjudligini ifodalashi:

Uning uyi bor. – او خانه دارد.

Uni xotini yo‘q. – او زن ندارد.

fe‘li uchun to‘ldiruvchi bilan birikish ham xarakterlidir.

Fe‘lning analitik shakli mustaqil fe‘lning ma‘lum bir shakliga yordamchi fe‘l qo‘shish orqali yasaladi. Boshqacha qilib aytganda, analitik shakllar tasviriy zamonlar shakllari hisoblanadi. Hozirgi zamon dariy tilida fe‘lning quyidagi analitik mavjud:

1) (ماضی نقلی) o‘tgan zamon natijali fe‘li

Men bu kitobni o‘qiganman – من این کتاب را خوانده ام

2) uzoq o'tgan zamon fe'li (ماضى بعيد)

Men bu kitobni o'qigan edim - من اين كتاب را خوانده بودم

3) aniq kelasi zamon fe'li (مستقبل)

Men bu kitobni o'qiyman (o'qijakman) - من اين كتاب را خواهم خواند

4) hozirgi zamon davom fe'li (مضارع ملموس)

Men bu kitobni o'qiyapman - من اين كتاب را ميخوانم

5) o'tgan zamon davom fe'li (ماضى ملموس)

Men bu kitobni o'qirdim - من اين كتاب را ميخواندم

6) o'tgan zamon shart- istak mayli (ماضى التزامى)

Men bu kitobni o'qigan bo'lsam edi - كاش كه من اين كتاب را خوانده باشم

7) majhul daraja (فعل مجهول)

Bu kitob men tomonimdan o'qilgan. - اين كتاب از طرف من خوانده شد

Gap fe'lining o'tgan zamon natijali fe'lining kesim vazifasida keladigan holati haqida ketar ekan, albatta uning predikativlik xarakteriga ega o'tgan zamon sifatdoshi bo'lib keluvchi sostavli bog'langan kesim bilan oddiy natijali fe'lining omonimlikka egaligini ham nazarda tutishimiz kerak. Qiyoslang:

[14] Kitobni kim olgan? - كتاب را كى گرفته است؟

[13] Ovozi bog'ilib qolgan. - صدا پيش گرفته است.

Birinchi gapda fe'l- kesim bo'lib kelgan, ikkinchi gapda ot – kesim vazifasida kelgan.

Hozirgi zamon davom fe'li tipidagi kesimning asosiy sintaktik o'ziga xos xususiyati – asosiy fe'l va yordamchi fe'lining ajratilganligi hamda ramkali qurilma hosil qilishidir.

G'am – g'ussa meni devona qilib qo'yay derdi. - غم و غصه داشت ديوانه ام ميكرد

Ma'lumki, aniq kelasi zamon modal infinitivga aylangan murakkab kesimdan kelib chiqqan. Masalan,

خواهم نوشتن ← خواهم نوشت

Fe'ning majhul darajasi yordamchi fe'li yordamida yasaladi. Majhul darajasi hamma fe'llardan ham yasalavermaydi, faqatgina o'timli yoki kauzativ

fe'llardan yasaladi. Majhul daraja shakli turg'un grammatik shakl bo'lib, uning tarkibidagi شدن fe'lini unga ekvivalent bo'lgan گردیدن yoki گشتن fe'llari bilan almashtirish mumkin emas.

Fe'ning fraziologik so'z birikmasi bilan ifodalangan kesim. Dariy tili frazeologik birliklarga boy bo'lib, ular gaplarda ko'p uchraydi. Lekin gaplarda kesim vazifasida frazeologik birliklarning kelishi va bu frazeologik birliklar tarkibida murakkab fe'llarning qo'llanilishi turli bahslarga sabab bo'ladi. Tilshunos olimlarning fikricha, bunday birikmalarga nisbatan murakkab fe'l atamasini ishlatish unchalik to'g'ri bo'lmaydi, chunki ular murakkab so'zlar bilan qiyoslana olmaydilar. Murakkab fe'l murakkab so'z emas, balki so'zga teng va bir butun ma'noni ifodalovchi frazeologik so'z birikmasidir.

زحمت کشیدن – ishlamoq, mehnat qilmoq, نیش زدن – sanchmoq, تبصم کردن – kulmoq, qilmoq.

Sintaktik (erkin) va frazeologik (turg'un) so'z birikmalarining omonimiyasi holatlari ham kuzatilishi mumkin:

سبز شدن – paydo bo'lmoq; ko'karmoq va سبز شدن

گرم شدن – qizimoq (suhbat); isimoq va گرم شدن

بالا کشیدن - o'zlashtirib olmoq. yuqoriga tortmoq va بالا کشیدن

To'satdan u yonimda paydo bo'ldi.[11] دفعتهً او پهلوی من سبز شد .

Suhbatimiz shu qadar qizirdiki,...[13] صحبت ما این قدر گرم میشد

II.2.Murakkab fe'l- kesim

Modifikatsiyalovchi fe'l deb, butun birikmaga qo'shimcha yo'nalish, harakat, ish- harakatning kutilmagan holda bajarilishi kabi ma'nolarni yuklovchi fe'lga aytiladi.

Bu hodisa tojik tili va lahjalarida keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda 40 ga yaqin modifikatsiyalovchi fe'l iste'molda. Fors tilida, shu jumladan Kobul lahjasida bunday fe'llar juda kam uchraydi va ularning soni 2-3 tadan oshmaydi. Dariy tilida uchraydigan modifikatsiyalovchi fe'llarga گرفتن, رفتن, آمدن kabi fe'llarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu fe'llarning aniq mayl shakllari

jumla tarkibidagi asosiy fe'lining tegishli zamon, shaxs-son shakli bilan moslashgan holda ishlatiladi:

کنار دریا گرفته نشست - Daryo bo'yiga o'tirib oldi.[10]

توگادی، کتتی - تمام شد رفت

Modal maqsadli xarakterdagi fe'liy birikmadan iborat kesim lar ikki ba'zan uch fe'ldan tarkib topadi. Birikmadagi birinchi fe'l eganing biror harakatni bajarishga bo'lgan intilishi, moyilligini, ikkinchi fe'l esa(ba'zan ikkinchi va uchinchi fe'llar birgalikda) o'sha ish- harakatning o'zini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, bunday kesim modal fe'l bilan asosiy fe'lining birikuvidan hosil bo'ladigan kesim turidir.

او میتواند کار کند - U ishlay oladi.

او میخواهد کار کند - U ishlamoqchi.

او باید کار کند - U ishlashi kerak.

او مجبور است کار کند - U ishlashga majbur.

Bunday birikmalar gap tarkibida bir butunlikda qatnashib kesim vazifasini bajaradi. Modallik ma'nolarini ifodalovchi fe'llarning sinonimlari ham mavjud va ular tegishli ma'no qirralarini ifodalaydi:

توانستن - بلد بودن - qila olmoq, qodir bo'lmoq

Og'zaki til jarayonida bir harakat fe'lining ikki yoki undan ortiq aorist shakllarini boshqarayotgan shakllari ham kuzatiladi:

Ularni qo'yib ketishga kelgan edim. [10] - امدوار بودم که آنها را بذارم و برم

Dariy tilida modal maqsadli yo'nalishga ega murakkab kesimlar bilan bog'liq yana bir muammo mavjud. Bu muammo dariy tilida sodda va qo'shma gaplarning hali bir- biridan to'liq ajratilmaganligi bilan bog'liq.

Shu kunlarda uyda bo'lmoqchiman.[10] - میخوامم در این روزها در خانه باشم

Shu kunlarda uyda bo'lishni xohlayman. - میخوامم که در این روزها در خانه باشد

Bu masalani hal etish uchun har ikkala tarkibiy qismlarning gap egasi bilan shaxs-sonda moslashuviga qarash lozim. Agar har ikki qism ega bilan to'liq moslashsa, bu holda murakkab kesim va sodda gap haqida so'z yuritishimiz zarur.

Agar bunday moslashuv bo'lmasa qarshimizda murakkab gap turgan bo'ladi.

Endi modal fe'llardan biri بایستن fe'li haqida so'z yuritamiz. Ushbu fe'l kerak bo'lmoq, qilish kerek ma'nolariga ega bo'lib faqatgina uchinchi shaxs formasida keladi va o'zi gapda mustaqil fe'l sifatida ishlatila olmaydi. Quyida باید modal fe'li bilan asosiy fe'l qanday holatda ishlatilishini ko'rib chiqamiz:

1. باید بخوانم
2. باید میخوانم
3. باید خواند
4. باید خوانده باشم

Sen bizning barcha savollarimizga - تو باید به همه سوالهای ما جواب بدهی jovob berishing kerak.[12]

Otam safarga borishi kerak edi.[12]

Yarim yo'ldan qaytishim mumkin emasdi.[13]

Bu odamga ishonmaslik kerak.[13]

Hamma yig'ilishi kerak. [14]

fe'li ham modal fe'l bo'lib ham mustaqil fe'l bo'lib barcha shaxslarda kela oladi. Modal fe'l bo'lib kelganda u o'zining asosiy ma'nosini saqlab qolishi ham mumkin yoki yordamchi fe'l vazifasini bajarishi ham mumkin. Modal fe'l bo'lib murakkab fe'l kesimni tashkil etadi va quyidagicha kelishi mumkin:

1. میخواهم بخوانم
2. میخواهم بخوانی
3. خواهد بخوانم
4. خواهد خوانده باشید

Raqs tomosha qilishni xohlaysanmi?[13]

Tovuqni o'ldirishingizni xohlayman.[11]

U mening xonamni ishlarini boshqarmasligini xohlayman.[10]

U mening xonamni ishlarini boshqarishini xohlamayman.[10]

Balki hammalari maktabdadir.[10]

Ehtimol yetib kulgandurmiz.[10]

Nima deb - یگان بیست سال ، بیست و یک سال خات شده باشه از آمدن مه
o'ylaysan, kelganimdan beri oradan yigirma yil o'tdimi yigirma bir yilmi?[12]

توانستن (og'zakida) -qila olmoq fe'li barcha shaxs-son qo'shimchalarini
oladi, lekin majhul nisbatda va mustaqil fe'l sifatida qo'llanila olmaydi. Ushbu
fe'l ham asosiy fe'l bilan birgalikda murakkab fe'l- kesimni tashkil etadi va
quyidagicha qo'llanishi mumkin:

1. میتوانم بخوانم.

2. خوانده میتوانم.

3. میتوان خواند.

4. میتوانم خواند.

Begunohligingni qanday isbotlay
olasan?[11] – چطور میتوانی بیگاهی ات را ثابت کنی ؟

Ammo men u tarafga qadam
tashlolmasdim.[11] – اما من نمیتوانستم قدمی به طرفش بردارم .

Men aniq bir narsani ko'ra
olmadim.[11] – هیچ چیز را به صورت مشخص دیده نتوانستم.

Sen o'zing yo'lni topa olasanmi?[12] – آیا تک تنه راه را پیدا کرده میتوانی ؟

Ortiq sabr qilib bo'lmaydi.[10] – بیش از این نمیتوان تحمل نمود .

Bu xonaga ruxsatsiz kirib
bo'lmaydi.[12] – به این اتاق بدون اجازه نمیتوان داخل شد.

Ehtimol uning ishini tugatarman.[13] – شاید بتوانم کار او را ساخت.

Hozirgi dariy tilida sub'ektiv infinitive shakli faqat ish – harakat
boshlanishini ifodalovchi fe'llar bilan birga ishlatiladi:

U qaltirash va dodlashga tushadi. – او بنا کرد لرزیدن و فریاد کردن.

Ish – harakat boshlanishini ifodalovchi fe'llarga yana quyidagi fe'llarni
kiritish mumkin: آغاز کردن , گرفتن , شروع کردن

Bulut paydo bo'ldi va yerga yomg'ir
yog'ib berdi. – ابری تولید شد و روی زمین باریدن گرفت

fe'li bilan infinitivlarning ishlatilishi qat'iy emas, chunki uni
turlicha qo'llash mumkin:

o‘qishni boshladi – شروع کرد خواندن

o‘qishni boshladi – شروع به خواندن کرد

o‘qishni boshladi – خواندن را شروع کرد

o‘qishni boshladi – شروع کرد به خواندن

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, biz mazkur olib brogan tadqiqotimiz tufayli dariy tilida kesimning o'zbek tilidan farqli ravishda besh turi mavjudligini, kesim uch xil: morfologik – sintaktik, intonatsiya – sintaktik va intonatsiya usullari orqali ifodalanishi mukinligini, kesim anglatayotgan ma'nolarning turlichaligini, fe'l – kesim turlarini, fe'l - kesim vazifasini bajaradigan fe'llar, modal fe'llarning turlarini, ularning ma'no o'zgarish holatlarini, mustaqil fe'llar gapda mustaqil ma'nosini yo'qotib, yordamchi fe'l vazifasida qo'llanib fe'lning analitik shaklini hosil qilishini ko'rib chiqib, bir qator yangiliklar topishga muvaffaq bo'ldik.

Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib, gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasini faqat mustaqil so'zlarga bajaradi. Har bir gap bo'lagi boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan Grammatik munosabatiga ko'ra belgilanadi, ya'ni har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi. Kesim gapning asosini tashkil etuvchi markaz hisoblanadi. Ega ham kesimga ergashadi va u bilan moslashadi. Gapdagi asosiy mazmun kesim orqali ifodalanadi. Gapni yuzaga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda katta. U hukmninifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lakdir.

Fe'l – kesim kesimning bir turi hisoblanib, fe'l orqali ifoda etiladi ya'ni gapda kesim vazifasini fe'l bajaradi. Fe'l – kesimning ikki turi mavjud: sodda fe'l – kesim hamda murakkab fe'l – kesim. Sodda fe'l – kesim gapda bir fe'ldan yoki frazeologik birliklardan iborat bo'ladi. Murakkab fe'l – kesim esa ikki yoki undan ortiq fe'llardan tashkil topadi. Dariy tilida kesim asosan gapning oxirida keladi. Murakkab fe'l – kesim tarkibida yana modal fe'llari ham ishlatilishi mumkin. Bu modal fe'llarning ba'zilar mustaqil fe'l hisoblansada, gapda o'z ma'nosini yo'qotadi, ba'zilar esa mustaqil fe'l emas.

Foydalanilgan adaniyotlar ro'yxati:

Nazariy manbalar:

1. Neghad Saidiy . دىكتور زبان درى - كابل - 1969
2. Дорофеева Л.Н. Язык фарси – кабули. – М., 1960
3. Киселева Л.Н. Очерки по лексикологии языка дари. – М., 1973
4. Фархади Р. Разговорный фарси в Афганистане.-М., 1974
5. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. –М., 1985
6. Островский Б.Я. Учебник языка дари. – М., 1994
7. Shokirov O. Dariy tili. I-II-T.,2004
8. Островский Б.Я. Модальные глаголы языка дари.- М., 2008

Adabiyotlar:

۹. شراره ۲۵۵۴ - بېرک ارغند.
۱۵. بېرک ارغند.
۱۱. زریاب سپږمى.
۱۲. زریاب رهنرد.
۱۳. پژواک پروین.
۱۴. مرادى قادر.

Lug'atlar:

15. Дари – русский словарь.- М., 1978
16. Персидско – русский словарь. – М., 1983